

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN “ DOSTONI HAQIDA

*Xolmatxonova Muslima Shukurxon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*

[+998916665755muslimaxon12@gmail.com](mailto:+998916665755muslimaxon12@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqola “Farhod va Shirin” dostonining kelib chiqishi undagi voqealar, obrazlar haqida ma'lumot berardi.

**Kalit so'zlar:** Arman yurti, Shirin , Farhod, Sheruya

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о событиях эпоса Фархад и Ширин.

**Ключевые слова:** Фархад и Ширин

**Annotation:** this article about events and characters in the epic „ Farhod and Shirin,,

**Key words:** Farhod , Shirin and others.

Alisher Navoiy Xamsasidagi ikkinchi doston „ Farhod va Shirin " deb atalib 1484-yilda yozilgan. Navoiygacha bu asar „Xusrav va Shirin „,tarzida mashhur edi.

Afsonaning Bosh qahramoni Xusrav Parvez aslida tarixiy shaxs bo'lib, 590-yil taxtga chiqqan, 628-yil og'li

Sheruya tomonidan o'ldirilgan. Xususan Navoiyning ozi ham „, Tarixi muluku ajam,,asarida Xusrav Parvez haqida ma'lumot beradi .

Farhod — Sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Farhod qadimgi mifologiya va folklorda tog‘ qahramoni sifatida tasvirlangan. Rivoyatlarda Farhod. afsonaviy kuchlardan ham yuqori qo‘yilgan. Badiiy adabiyotda dastlab forstojik shoiri Og‘ochiy (10—11-asrlar) she‘rlarida tilga olingan. Bal‘amiy ("Tarixi Tabariy"), Abu Dulaf ("Risolai soniya") asarlarida Farhod. Shirin bilan bog‘liq qahramon sifatida eslangan.

XV-asrdan keyin turkiy xalqlar adabiyotida Farhod va Shirin nomlari bilan bog‘langan dostonchilikka Navoiyning shu nomdagi asari o‘zining katta

ta‘sirini ko‘rsatdi. Uygur shoiri Xirqatiyning (17-asr) "Muxabbatnoma va mehnatkom" hamda Abduraim Nizoriyning „Farhod va Shirin“ dostoni Farhod

haqidagi xalq afsona va rivoyatlari bilan bir qatorda Navoiy dostonidan ruxlanib yaratilgan. 19-asrda yashab ijod qilgan o‘zbek shoiri Mahzunning „Farhod va Shirin“ dostonida ham Farhod bilan bog‘lik. Navoiy asarlaridagi asosiy syujet chizig‘i saqlangan.

Navoiy yigitlik davrida „Topmadim“ radifi bilan yozgan g‘azallarining birida yoshligida o‘zi qayta-qayta o‘qib, diliga jo qilgan dostonlar to‘g‘risida so‘z yuritadi, unda shunday bir bayt bor: "Ko‘p o‘kudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin, O‘z ishimdin bul’ ajabroq dostone topmadim".

Demak, Navoiy yoshligidan boshlab mashhur oshiq va ma’shuqalar, shu jumladan, Farhod, Shirin haqidagi qissalarni ko‘p va qayta-qayta o‘qigan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” Mukammal asarlar to'plami
2. Navoiy “Farhod va shirin” ( nasriy bayoni)
3. 1989( Adabiyot va San’at)
4. Erkinov S „Farhod va shirinning qiyosiy tahlili”
5. Google wikipedia
6. Yusupova “Xamsa”ning mazmuni